

1.Ko'rish o'tkirligini aniqlash.

Ko'rish o'tkirligi (visus) - ko'zning bir-biridan minimal masofada joylashgan ikkita nuqtani birlashtirib ko'rish qobiliyati.

2.Viziometriya- Ko'rish o'tkirligini tekshirish usuli.

Ko'rish o'tkirligini aniqlash uchun har xil o'lchamdagi harflar, raqamlar yoki belgilar mavjud bo'lgan maxsus jadvallar qo'llaniladi.

3. Avtorefraktometriya- bu refraksiya anomalyalari (Miopiya, gipermetropiya va astigmatizm) haqida obyektiv ma'lumotlarni olishga imkon beruvchi tekshiruv usuli hisoblanadi. Avtorefraktometr qurilmasi yordamida tekshiriladi.

4. Oftalmometriya- shox pardada proyeksiyalangan nur sindirish kuchini aniqlash ya'ni shox pardani egrilik radiusini aniqlash usulidir. Bu usul kontakt linzalarni tanlashda, operatsiyalarni rejalashtirishda, ko'z kasalliklarini o'rganishda muhim diagnostik usul hisoblanadi.

5. Perimetriya- ko'ruv maydonini yani periferik ko'rish chegaralarini tekshirish usuli. Kompyuterli perimetriya, Ferster perimetrlari yordamida tekshiriladi.

6. Oftalmoskopiya- ko'z tubini tekshirishning asosiy usuli bo'lib, u to'r parda markaziy (sariq dog') va chekka qismlari haqida to'liq ma'lumot beruvchi usul, shuningdek xorioideyani baholashga imkon beradi. oftalmoskopiyaning to'g'ri va teskari usullari qo'llaniladi. Bunda maxsus linzalardan foydalaniladi.

7. Ko'z biomikroskopiyasi- bu ko'z olmasi tuzilmalarining va ko'z ichi optik qismlarini maxsus kattalashtiruvchi uskunalar yordamida tekshirish usuli.

8. Ko'z oynak tanlash- bu xizmat turli masofalarda vizual ishlash uchun ko'zoynak tanlovidir (uzoq masofa uchun, o'qish uchun va kompyuterda ishlash uchun).

Tonometriya - ko'z ichki bosimini o'lchash usuli / palpatsiya yoki instrumental- kontaktli va kontaktsiz usulda amalga oshirilishi mumkin.

9. Gonioskopiya- ko'z oldingi kamera burchagini goniolinza va tirqishli lampa yordamida tekshirish usuli. Bu usul yordamida oldingi kamera

burchagi va undagi qismlar holati, shuningdek uning ochiqlik darajasi baholanadi.

10.Tonografiya- bu ko'z ichi suyuqligi ishlab chiqarilishi va chiqib ketish tezligini baholash va ko'z ichki bosimini grafik tarzda qayd etish usuli.

11.K'CM – Yorug'lik miltillovchi sintezining kritik chastotasini o'rganish-ko'zning to'r pardasi faoliyatini baholash usuli hisoblanadi. Tekshiruvning mohiyati shundaki- u yorug'likning turli xil chastotalaridagi uchqunlarini yuborib, to'r parda ularni umumiy optik oqim sifatida emas, balki alohida- alohida idrok eta olish qobiliyatini aniqlay olish imkonini beradi. Ko'z optik muhitlari hira bo'lganida jarrohlik amaliyotlaridan oldin to'r parda va ko'ruv nervi holatini baholay olish imkonini beradi.

12/Ko'zning ultratovush tekshiruvi- ko'z strukturalarini ultratovush to'lqinlari yordamida batafsil tekshirish usuli. 2 xil usulda tekshiriladi. A-scan va B-scan

1.A-skanerlash yoki exobiometriya - bu ko'z olmasining va uning tuzilmalarining bir o'lchovli ultratovush tekshiruvidir. Oldingi ko'z kamerasing o'lchami va chuqurligini, linzalarning qalinligini, ko'z olmasining uzunligini va shox pardaning egriligini baholash uchun amalga oshiriladi. Olingan natijalar monitor ekranida ko'rsatiladi, bu oftalmologga miopiya va boshqa patologiyalarni aniqlashda to'g'ri tashxis qo'yish, shuningdek, operatsiyadan oldin ko'z ichi linzalarining optik kuchini hisoblash imkonini beradi.

.B-scan -bu ko'z olmasining va uning tuzilmalarining ikki o'lchovli ultratovush tekshiruvidir. U ichki tuzilishini tekshirish va ko'z ichidagi o'zgarishlarni (shishasimon tana va to'r parda ko'chishi, ko'z ichiga qon quyilishi, yot jism va ko'z ichi o'smalari...) aniqlash imkonini beradi.

13. UBM -Ultratovushli biomikroskopiya bu ko'z oldingi segmentining ko'z ichi tuzilmalari (shox parda, iris,old kamera burchagi)da rivojlanayotgan buzilishlarni aniqlashga qaratilgan akustik tadqiqotning yuqori aniqlikdagi tekshirish usuli. Bu usul ayniqsa glaukoma va gaxar almashtirish amaliyotlaridan oldin juda kerakli ma'lumotlarni beradi. Viloyatimizda faqat markazimizda qo'llaniladigan tekshirish usulidir.

16. Optik kogerent tomografiya – bu zamonaviy kontaktsiz va yuqori aniqlikdagi tadqiqot usuli bo'lib, shox parda bo'limlari , old kameradagi

ko'z tuzilmalarini, ko'ruv nervi diski, shishasimon tana, to'r parda va makulani qavatlarigacha batafsil tasvirlarini olish imkonini beradi.